



**O'ZBEKISTONDA IQTISODIY SUDLAR TOMONIDAN JISMONIY
SHAXSNING TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIGIGA DOIR ISHLAR QAY
TARTIBDA KO'RIB CHIQILMOQDA?**

O'razaliyev Tohir Muradulla o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti, Biznes huquqi 1-kurs talabasi

E-mail: tokhirurazaliyev@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida 2023-yil 1-yanvardan joriy qilingan yangi institut - jismoniy shaxsning to'lovga qobiliyatsizligiga doir ishlar iqtisodiy sudlar tomonidan qay tartibda ko'rib chiqilayotganligi, amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar va bu muammolarga takliflar muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *To'lovga qobiliyatsizlik, muvaqqat boshqaruvchi, moliyaviy boshqaruvchi, moliyaviy boshqaruvchiga to'lanadigan haq.*

**How are insolvency cases of individuals reviewed by economic courts in
Uzbekistan?**

Tashkent state university of law

Faculty of Master's and distance study, Master's student of Business law

E-mail: tokhirurazaliyev@gmail.com

Abstract: *This article discusses the new institution introduced in Uzbekistan on January 1, 2023, regarding the insolvency of individuals, examining the procedure by which economic courts are handling these cases, the challenges encountered in practice, and proposed solutions to address these challenges.*

Key words: *Insolvency, temporary manager, financial manager, remuneration of the financial manager.*



**Как дела о признании физического лица неплатежеспособным
рассматриваются экономическими судами в Узбекистане**

Студент магистратура 1 курса Коммерческого права

В Ташкентском государственном юридическом университете

E-mail: tokhirurazaliyev@gmail.com

АННОТАЦИЯ: *В данной статье рассматривается новый институт, введенный в Узбекистане с 1 января 2023 года, – дела о признании физического лица неплатежеспособным. В статье анализируется процедура рассмотрения таких дел экономическими судами, проблемы, возникающие на практике, и предлагаются решения для их устранения.*

Ключевые слова: *неплатежеспособность, временный управляющий, финансовый управляющий, выплата вознаграждений финансовому управляющему.*

Kirish

O'zbekiston Respublikasida 2022-yil 12-aprelda O'zbekiston Respublikasining "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida" gi Qonuni qabul qilindi. Shu munosabat bilan eski tahrirdagi 1994-yil 5-mayda qabul qilingan "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonun o'z kuchini yo'qotgan deb topildi.

Mazkur yangi "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida" gi Qonunda nafaqat yuridik shaxslarning, balki jismoniy shaxslarning, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlarning to'lovga qobiliyatsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish borasida yangi qonun normalari o'z aksini topdi.

Endilikda, Qonunning 14-bobi "Jismoniy shaxsning to'lovga qobiliyatsizligi"ga bag'ishlangan bo'lib, bu 14-bob 2023 yil 1-yanvardan e'tiboran amalga kiritildi.

Mavzuni tahlil qilishda eng birinchi o'rinda 2022-yil 12-apreldagi O'zbekiston Respublikasining "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida" gi Qonuniga jismoniy shaxsning to'lovga qobiliyatsizligiga oid normalarning kiritilishi va buning ahamiyatiga to'xtalsak.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasi bilan har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi kafolatlangan. Shu sababli kreditorlar oldida o'z qarzdorliklarini so'ndirishga, to'lov qobiliyatini tiklashga qobiliyati yo'q jismoniy shaxslar, sudga murojaat etish orqali debitor qarzdorliklarini so'ndirish yoki qarzini tarkibiy jihatdan o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu o'z navbatida iste'mol-kredit bozorida kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga ham yordam beradi. Masalan, umidsiz qarzdorliklardan qonuniy qutulish.

Tahlil

O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 12 aprelda "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi Qonuni (keyingi o'rinlarda Qonun) qabul qilinishi bilan shu kungacha amalda bo'lmagan mexanizm – jismoniy shaxslarni bankrot deb topish mumkinligi belgilandi. Jismoniy shaxsning to'lovga qobiliyatsizligiga oid ishlar iqtisodiy sudlar tomonidan Iqtisodiy protsessual kodeks (keyingi o'rinlarda - IPK)ning umumiy qoidalaridan kelib chiqib, "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi Qonunda belgilangan alohida qoidalarni inobatga olib ko'rib chiqiladi. Xususan, IPKning 164-moddasiga muvofiq sud muhokamasi ishni sud muhokamasiga tayyorlash to'g'risidagi ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran bir oydan oshmagan muddatda tugallanishi kerak. Ammo, "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi Qonunning 50-moddasiga ko'ra to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish sud majlisida qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi ariza ish yuritishga qabul qilinganligi to'g'risida ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran ikki oydan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rib chiqilishi kerak. To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishni ko'rish alohida hollarda bir oydan oshmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

Mohiyatga tayansak, Qonunning 30-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, jismoniy shaxs to'lovga qobiliyatsizligini hal qilish ikki usul bilan amalga oshiriladi:

- restrukturizatsiya (Qonunda "Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o'zgartirish tartib-taomili" deb ko'rsatilgan);
- bankrotlik (Qonunda "Jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili" deyilgan).



Ishni qo'zg'atish sharti – qarzдор jismoniy shaxsning to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjudligidir. To'lovga qobiliyatsizlik alomatlari qanday aniqlanadi degan savolga Qonun shunday javob beradi: majburiyatlar yuzaga kelgan kundan e'tiboran uch oy ichida bajarilmasligi va talablar bazaviy hisoblash miqdorining kamida ikki yuz barobarini (75 million) tashkil etishi kerak.

Qarzдор jismoniy shaxsning o'zi to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud bo'lganda bunday holat yuzaga kelgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay o'ziga nisbatan ish qo'zg'atish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilishi shart. Qonunning 198-moddasiga muvofiq, jismoniy shaxs o'z arizasiga YATT maqomi mavjudligi yoki bekor qilinganligi (agar shug'ullangan bo'lsa), intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan mutlaq huquqlari (agar bo'lsa), mol-mulklari, xususan qimmatli qog'ozlari, yuridik shaxsning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlari, transport vositalari, uch yil ichida tuzilgan bitimlar, daromadlar, uch yil ichidagi davrda hisoblangan va to'langan soliqlar hamda yig'implar, tijorat banklaridagi hisobvaraqlar va ulardagi pul mablag'larining qoldiqlari, jamg'armalar (depozitlar), uch yil ichidagi hisobvaraqlardagi operatsiyalar, omonatlar (depozitlar) bo'yicha ma'lumotlar (mavjud bo'lsa), sug'urtalangan shaxs shaxsiy hisobvarag'ining holati (mavjud bo'lsa), ishsiz deb topish haqidagi qarori (mavjud bo'lgan taqdirda), nikoh bilan bog'liq ma'lumotlarni (mavjud bo'lsa) ilova qiladi.

Ariza kreditor, davlat soliq xizmati yoki boshqa vakolatli organ tomonidan majburiyat mavjudligini tasdiqlovchi sudning qonuniy kuchga kirgan qarori mavjud bo'lgan taqdirda berilishi mumkin. Shuningdek, notarial tarzda tasdiqlangan, notariusning ijro yozuvi bilan tasdiqlangan hujjati bo'lsa, jismoniy shaxs tomonidan tan olingan, ammo bajarilmagan pul majburiyatlari bo'yicha kreditor taqdim etgan hujjatlar asosida, otalikni belgilash, otalikni (onalikni) rad etish yoki boshqa manfaatdor shaxslarni jalb etish zarurati bo'lmagan voyaga yetmagan bolalar uchun alimentlar undirish to'g'risidagi talablar asosida ham ish qo'zg'atilishi mumkin. Ushbu hujjatlar qarzдор tomonidan majburiyatlarning tan olinganligini bildiradi va ishni qo'zg'atishga asos bo'ladi.



Ishni qo'zg'atish jismoniy shaxs uchun quyidagi huquqiy oqibatlarga olib keladi:

- kreditorlar o'z talablarini qanoatlantirish uchun unga yakka tartibda murojaat qila olmaydi. Talablar moliyaviy boshqaruvchi tomonidan restrga kiritiladi va navbat bo'yicha qanoatlantiriladi;

- ijro hujjatlarini, xususan, undiruvni jismoniy shaxsning mol-mulkiga qaratish bo'yicha ijro hujjatlarini bajarish to'xtatib turiladi (ayrim ijro hujjatlaridan tashqari);

- qiymati baland bitimlarni (xususan, transport vositalarini sotib olish, kredit olish) kreditorlar roziligi bilan tuzadi.

Sud jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o'zgartirish (restrukturizatsiya) tartib-taomilini joriy etish to'g'risida ajrim qabul qilgan taqdirda qarzdorning kreditorlar oldidagi qarzini uzishi osonlashadi. Chunki qarzni tarkibiy jihatdan o'zgartirish orqali unga hisoblangan penya(jarima)lardan voz kechilishi, foiz miqdorlari kamaytirilishi, majburiyatni bajarish muddatlari uzaytirilishi, to'lov grafigiga o'zgartirish kiritilishi kabi jarayonlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Restrukturizatsiya rejasini tasdiqlash quyidagi oqibatlarga olib keladi:

kreditorlar reja tasdiqlanganidan keyin o'zi ko'rgan zararning o'rnini qoplash to'g'risida talablar qo'yishga haqli bo'lmaydi;

jismoniy shaxsning pul majburiyatlari bo'yicha talablarini qarama-qarshi talabni o'zaro hisobga olish yo'li bilan tugatishga, agar rejada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, yo'l qo'yilmaydi;

neustoykalar (jarimalar, penyalar) va boshqa sanksiyalar, foizlar hisoblanmaydi, bundan joriy to'lovlar mustasno.

Qarzdor restrukturizatsiya rejasini bajarish bo'yicha moliyaviy boshqaruvchiga axborot taqdim qilib turadi. Rejaga kiritilgan majburiyatlar bajarilmasa, sud restrukturizatsiya tartib-taomilini muddatidan oldin tugatadi va qarzdorni bankrot deb topadi.



Ammo, amaliyotda jismoniy shaxsning to'lovga qobiliyatsizligiga oid ishlarning iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqilishida bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda. Ular quyidagilar:

Birinchidan, moliyaviy boshqaruvchiga haq to'lash o'zi shundoq ham o'z pul majburiyatlarini boshqa kreditorlar oldida bajarishga qodir bo'lmagan qarzdor jismoniy shaxs zimmasida ekanligi va amalda Qonunning 26-moddasiga ko'ra sudning depozit hisobvarag'iga mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining yetti baravari miqdorida oldindan pul mablag'lari o'tkazilishi belgilanganligi, ushbu ishga tayinlangan moliyaviy boshqaruvchilarning o'z vazifalarini to'la to'kis amalga oshirishi, jismoniy shaxs to'lovga qobiliyatsizligiga oid ishni olib borish jarayonida yuzaga keladigan qo'shimcha harajatlarni qoplash masalasini kun tartibiga chiqarmoqda.

Ikkinchidan, ko'p holatlarda jismoniy shaxsning o'z shartnomaviy huquqiy majburiyatlari bo'yicha emas, balkim uning oldingi xususiy korxona rahbari, yakka tartibdagi tadbirkorlik, oilaviy korxona rahbari sifatidagi faoliyatlaridan yoki aliment to'lash majburiyatlarining buzilishidan yuzaga keladigan qarz majburiyatlaridan farqini aniq qonunchilikda aks ettirilmaganligi sudlar uchun ma'lum miqdorda qiyinchilik tug'dirmoqda.

Uchinchidan, "Davlat boji to'g'risida"gi qonunga 1-ilovasiga muvofiq to'lovga qobiliyatsizlik haqida ish qo'zg'atish to'g'risidagi arizalardan BHMning 3 baravari miqdorida davlat boji undirilishi nazarda tutilgan. IPKda va "Davlat boji to'g'risida"gi qonunda xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun davlat bojini kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash mumkinligi nazarda tutilgan va bunga huquqiy normalar ajratilgan (masalan, pul mablag'lari mavjud bo'lmagan va bu xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan tasdiqlangan taqdirda, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarga sudning ajrimiga ko'ra davlat bojini kechiktirib to'lashga ruxsat berilishi mumkin. Bank tasdig'ida sudga murojaat qilingan sanadan ko'pi bilan uch kun oldingi sana qayd etilgan bo'lishi kerak).

Yuqorida iqtisodiy sudlar tomonidan jismoniy shaxsning to'lovga qobiliyatsizligiga doir ishlar ko'rib chiqilishida yuzaga kelayotgan kamchiliklardan



kelib chiqib bu toifadagi ishlarni ko'rib chiqishda yagona amaliyot shakllanmayotganligi, bu borada moliyaviy boshqaruvchilar malakasini yanada oshirish kerakligi, ularning ushbu toifadagi ishlarni yuritish chog'ida moliyaviy imkoniyatlarining cheklanganligi kabi jihatlari qonun darajasida tartibga solinishi va sudlarga ushbu toifadagi ishlarni ko'rishda yo'l-yo'riq ko'rsatish va yagona sud amaliyotini shakllantirish maqsadida "To'lovga qobiliyatsizlikka oid ishlarning iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqilishi to'g'risida"gi Oliy Sud Plenum qarori qabul qilinishi lozim deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

- 1.Худайбергенов Б.Б. Банкротлик ҳукуқи. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., проф. К.О.Синдаров. – Т., ТДЮУ, 2021.– Б.270.
- 2.Международный научно-исследовательский журнал international research journal issn 2227-6017 online;. Екатеринбург 2022
3. "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida" gi Qonun.-T "Adolat" nashriyoti, 2024.-B 265
- 4.Молодой ученый Международный научный журнал № 3 (345) / 2021
5. TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: SANATSIYA VA BANKROTLIK UDK: 343.535(043.5)(575.1), yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI Toshkent-2023., B.Xudoybergenov